

## MOZIYDAN SADO

Jaxongir Kuchkarov

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar xukmronligi davrida "Nog'oraxona"lar paydo bo'lishi, urma zarbli cholg'ulardan foydalanish samaralari va ulardan xarbiy amaliyotda qanday foydalanganligi. Musiqa cholg'ularini faqatgina ramziy belgi hisoblamasdan, balki harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarining tabaqa va martabalarini ko'rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** surnay, karnay, tobil, nog'ora, Dovul, mehtar (nog'orachi)

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено возникновение «Барабанов» в период правления Амира Темура и Тимуридов, последствия использования ударных инструментов и способы их применения в военной практике. Говорят, что музыкальные инструменты – это не только символический знак, но и знак воинской силы, храбрости, знак воинского звания, указывающий на класс и звание воинов.

**Ключевые слова:** карнай, сурнай, тобил, нагара, меҳтар (барабанщик).

**Annotation:** This article examines the emergence of "Drums" during the reign of Amir Temur and the Timurids, the consequences of the use of percussion instruments and methods of their use in military practice. They say that musical instruments are not only a symbolic sign, but also a sign of military strength, courage, a sign of military rank, indicating the class and rank of warriors.

**Key words:** karnai, surnai, tobil, nagara, mekhtar (drummer).

Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur musiqa san'atining estetik ahamiyatini chuqur tushungan. Uning hukmronligi davrida "Nog'oraxona"lar paydo bo'la boshlaydi. Nog'oraxona va u yerdagi bosh nog'orachining vazifasi kun chiqishi, tushlik va kun botish paytida kuylar chalish, keyinchalik kunning har soatiga mo'ljallab ijod qilingan maqom sho'balarini ijro qilish, ayniqsa ro'zayi-ramazon oylarida ro'zadorlarni saharlikka uyg'otadigan kuylar chalish nog'oraxonalarda amalga oshirilgan.O'z navbatida, mehtarlar (ya'ni nog'orachilar) Amir Temurga eng yaqin odamlar hisoblangan. Ular zarur paytda sohibqironning huzuriga ruxsatsiz kirish huquqiga ega bo'lgan. Bu vakolat boshqalarga berilmagan. Amir Temur tomonidan otda chopish, kurash, nayzabozlik, qilichbozlik va boshqa harbiy o'yin musoboqlari hamda ko'pkarilarning har tomonlama taqdirlanishi harbiy musiqa, ayniqsa, ochiq havoda ijro qilinadigan damli va zarbli cholg'ularning



ahamiyatini oshirdi. Mahoratli sozandalarning yetishib chiqishiga keng yo'l ochib berdi. Bunday katta tantanalar Hirotda, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda "tarabxonalar", "tomoshagoh", "saylgoh" kabi maydonlarda o'tkazilgan. Tomosha yoki sayl boshlanishidan oldin surnay, karnay, tobil, nog'oralardan tashkil topgan guruh ijrosida "Olomon yig'ar", "Shodiyona", "Bahri tobil" va shularga o'xshash aholini yig'inga chorlovchi kuylar ijro qilingan. Mehtarlik guruhlari yanada rivojlanib ularning dasturlarida "Askariy", "Mehtariy", "Ilg'oriy", "Sarbozcha", "Duchoba", "Qashqarcha", "Sharqiya", "Usmoniya" va boshqa kuylar ijro qilingan.

Shunisi e'tiborliki, Amir Temur lashkarida musiqa cholg'ulari faqatgina ramziylik belgisi hisoblanmasdan, balki ko'p hollarda asosan harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarining tabaqa va martabalarini ko'rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatgan. Bu borada "Temur Tuzuklari" da shunday deyiladi: "Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar. Faxrli kitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar. O'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nboshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo'lsa bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar".<sup>1</sup>

Amir Temur armiyasining harbiy orkestri damli va zarbli cholg'ularning xilma-xil turlaridan tashkil topgan. Jumladan, nog'oraning turli xillari: ko's, tabira, al-tabra, bir tomonli nog'ora, chindoul, doul-paz, katta nog'ora, shuningdek, musulmon Sharqida azaldan mashhur bo'lgan tabla va misdan yasalgan jaras (lappak-tarelka) kabi urma cholg'ularidan ov jarayonida, harbiy yurishlar davomida keng foydalanilgan. Mazkur cholg'ular o'z navbatida, Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davrida va Markaziy Osiyo xalqlarida mashhur bo'lgan.

"Temuriylar davrida doira, nog'ora va dovullardan tashqari yana chinni idishdan ishlangan va cho'plar bilan chalinadigan kosalar, metalldan yasalgan toslar, tosh va po'latli (alvoh) maxsus urma cholg'ular amaliyotda qo'llanilgan".<sup>2</sup>

Amir Temurning harbiy amaliyot tarixiga kiritgan qator kashfiyotlari ham nihoyatda qiziqarlidir. Sohibqiron dushmanga qarshi jang paytida o'z askarlarining hatti-harakatlarini nog'ora usullari yordamida boshqargan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, urma zarbli cholg'ularda ijro qilinuvchi usullar o'ziga xos, maxfiy so'zlashuv vositasi hisoblangan. Har

<sup>1</sup> "Темур тузуклари" – Тошкент: "Шарқ" Н.М.А.К Бош таҳририяти, 2005 й. – 97 б.

<sup>2</sup> Шодмонов Нафас. Хожа Абдулқодир Марофий. – Тошкент, F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000 й. – 62 бет.





bir ijro qilingan usul o‘ziga yarasha ma’no anglatgan. Jangning borishiga qarab, usullar ham turlicha ijro qilingan. Ularning o‘zgarishi bilan askarlar ham jang davomidagi taktik harakatlarini o‘zgartirganlar. Bular o‘ziga xos maxfiy usullar bo‘lib, ularning ma’nosini faqatgina Amir Temur, uning askarlari va mehtarlar ya’ni usullarni ijro qiluvchi nog‘orachilar bilgan. Shuningdek, mo‘jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u yerga yashirin ravishda karnaychi va nog‘orachilar kiritilgan. Erta tong behosdan bu cholg‘ularning jarangi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan.

Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy bir qal’ani zabit etish manzarasini tasvirlay turib shunday yozadi: “Unda (ya’ni qal’ada) 300 erkak duhul (litavrasimon qadimiy urma zarbli cholg‘u) va surnaylarni chalish bilan tamoman mashg‘ul edi”. Dovul cholg‘usi u paytda duhul nomi bilan mashhur bo‘lgan.

O’sha davrdagi harbiy musiqa turlarining mazmuni, ohang tizimi xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilmagan. Ularning faqat nomlari va usul shakllarigina saqlanib qolgan. Masalan, Marog‘iy o‘z risolasida Samarqandda ijod qilgan “Zarbul fath” va “Davri Shohiy” usullarini keltiradi.

Amir Temur avlodidan bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro ham san’atkorlarni qadrlagan. Ma’lum bo‘lishicha, uning o‘zi ham tanbur va nog‘ora cholg‘ularining mohir ijrochisi bo‘lgan. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida ham Amir Temur davrida bo‘lgani kabi “Nog‘oraxona” mavjud bo‘lgan. Unda Said Ahmad ismli nog‘orachi mehtar vazifasini bajargan hamda nog‘ora usullari orqali hukmdorga xabarlarni yetkazib turgan. Muhsin Qodirovning “Temuriylar davri tomosha san’atlari” monografiyasida bu haqida misol keltirilgan:

“Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro Kofur ismli mulozimini bir qadah sharob bilan nog‘oraxonaga Said Ahmad huzuriga yuboradi. Ammo yo’lda Kofur qoqilib ketadi va uning qo‘lidagi sharob to‘la qadah yerga tushib sinib ketadi. Buni ko‘rgan Said Ahmad shu zahotiyoy “Kofur qadahni sindirdi” mazmunida usul ijro eta boshlaydi. Bu vaqtida Sulton Husayn do‘siti Alisher Navoiy bilan suhbatlashib o‘tirgan bo‘ladi. U bexosdan chalingan nog‘ora usulini tinglab, Mir Alisherga: “Kofur qadahni sindirib qo‘yibdi-ya!” — deydi”.<sup>3</sup>

Urma zarbli cholg‘ularda ijro qilish barcha xalqlarda ham eng zavqli va zaruriy mashg‘ulot bo‘lib, bu haqida musulmon olamining buyuk faylasuf olimi Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Kimyoi saodat” kitobidagi “Simoning (ba’zi) haromlig‘i bayonida” faslida shunday yozadi: “Surud, rubob, chang, barbat va nay aroq birla bo‘lsa haromdur. Chunki bu nimarsalar sharobxo‘rlar odatidur. Har nimarsaki, ularga xosdur, haromdur. Chunki bular sharobni yodig‘a keltirur va aning orzusini ziyoda qilur. Ammo tabla va daf

<sup>3</sup> Кодиров М. “Темурийлар даври томоша санъатлари” монография. – Тошкент: “Санъат” журнали нашриёти, 2007-й. – 216-б.





chalmoq harom emas. Agarchi salosil, ya’ni zanjirlari va qayrog‘i bo’lsa ham. Chunki daf va tabla hech asrda rad bo‘lmabdurki, o‘zga nag‘malarga buni qiyos qilib bo‘lmas. Hazrati Muhammad salollohu alayhi vasallam huzurlarida daf chalibdurlar va to‘y ma’rakada daf-doira chalmoqqa farmon qilibdurlar. Tabla chalmoq g‘oziyalar va hojilarning rasmidur”.<sup>4</sup>

Bundan ko‘rinib turibdiki, musulmon olamida boshqa cholg‘ularga qaraganda, urma zarbli cholg‘ular daf, doira va tabla chalish qo’llab-quvvatlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temur tuzuklari” – Toshkent: “Sharq” N.M.A.K Bosh tahririyati, 2005 y.  
– 97 b.
2. Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000 y. – 62 bet.
3. Qodirov M. “Temuriylar davri tomosha san’atlari” monografiY. – Toshkent: “San’at” jurnali nashriyoti, 2007 y. – 216 b.
4. Abu Homid G‘azzoliy. “Kimyoi saodat” – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2005 y. – 355-356 b

---

<sup>4</sup> Абу Ҳомид Ғаззолий. “Кимёи саодат” – Тошкент: “Адолат” нашриёти, 2005-й. – 355-356-б.

